

**“O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasida
kontragentlarni tekshirishga oid yo‘riqnoma
(yangi tahrirda)**

Toshkent

“O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasida kontragentlarni tekshirishga oid yo‘riqnoma

1 Umumiy qoidalar

1.1 Ushbu Yo‘riqnoma “O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasi (keyingi o‘rinlarda – Kompaniya) tomonidan amalga oshiriladigan xaridlar jarayonida, shu jumladan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar tuzishda xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilari, investorlar, kreditorlar va Kompaniya bilan hamkorlik munosabatlariga kirishayotgan yuridik va jismoniy shaxslarni (dilerlar, agentlar va h.) (keyingi o‘rinlarda - kontragentlar) majburiy tekshirishning asosiy talablari, tartibi va usullarini belgilaydi (Kompaniya xizmatlarini xarid qilayotgan shaxslar va Kompaniya bilan mehnat munosabatlariga kirishayotgan jismoniy shaxslar bundan mustasno).

1.2 Kontragentlarni tekshirishning asosiy maqsadlari:

- Kompaniya xodimlarining manfaatlar to‘qnashuvi va shaxsiy manfaatdorligi bilan bog‘liq bo‘lgan korrupsiyaviy xatarlarni kamaytirish;
- insofsiz kontragentlar bilan shartnoma tuzish xatarini kamaytirish;
- xarid jarayoni ishtirokchisining shartnomada belgilangan tovarlarni yetkazib berish yoki xizmat ko‘rsatish, ishlarni bajarish imkoniyatini baholash;
- kontragentlar bilan shartnoma tuzish to‘g‘risidagi qarorni tegishli darajada ehtiyotkorlik bilan qabul qilish;
- Kompaniya faoliyati jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan moliyaviy va boshqa xavflar (risklar)ni barvaqt oldini olish.

1.3 Kompaniyada ikki xil turdagi kontragentlar tekshirladi:

xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilari;

Kompaniya bilan hamkorlik munosabatlariga kirishayotgan yuridik va jismoniy shaxslar (dilerlar, agentlar va h.), shu jumladan xorijiy hamkorlar.

1.4 Xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilari bo‘lgan kontragentlar (keyingi o‘rinlarda – Xarid jarayoni kontragentlari) tekshirilishi xarid jarayonining barcha ishtirokchilari, shu jumladan, ular o‘rtasidagi aloqa mavjudligi ehtimoli nuqtayi nazaridan ham amalga oshiriladi. Ushbu Xarid jarayoni kontragentlarini tekshirish uchun mas‘ul etib, Kompaniyaning xaridlar faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirish bo‘yicha komissiyasi (keyingi matnlarda – Xarid komissiyasi) ijro organi hisoblanadi.

1.5 Kompaniya bilan hamkorlik munosabatlariga kirishayotgan yuridik va jismoniy shaxslar (dilerlar, agentlar va h.) va boshqacha tarzda munosabatlarga kirishayotgan barcha shaxslar (keyingi o‘rinlarda – Hamkor kontragentlar)ni tekshirish majburiy hisoblanadi. Ushbu Kontragentlarni tekshirish uchun mas‘ul etib, Kompaniyaning ushbu yo‘nalishdagi tarkibiy bo‘linmalari hisoblanadi.

1.6 Tekshiruv barcha yangi kontragentlarga nisbatan, shuningdek, amaldagi kontragentlarga nisbatan kamida bir yilda bir marta amalga oshiriladi. Bunda,

Kompaniyada kontragentlar tekshirilganligi haqida hisobot qog'oz yoki elektron shaklda rasmiylashtirilishi mumkin. Ikkala shakl ham bir xil kuchga ega hisoblanadi.

1.7 Kontragentlar tekshiruv natijalari bo'yicha xulosani olmasdan turib shartnomani imzolashga va (yoki) to'lovlarni amalga oshirishga yo'l qo'yilmaydi (Yo'riqnomaning 1.8- va 1.9-bandlarida ko'rsatilgan holatlar bundan mustasno).

1.8 Elektron do'kon va boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkaziladigan auksion shaklida amalga oshiriladigan xaridlar bo'yicha kontragentlar tekshirilmaydi.

1.9 Tekshiruv quyidagi kontragentlarga nisbatan amalga oshirilmasligi mumkin:

- kommunal va boshqa shu kabi xizmatlar (shu jumladan, elektr, gaz, issiqlik, muhandislik-texnika, suv ta'minoti, suv chiqarish, oqova suvlarni tozalash, qattiq maishiy chiqindilarni utilitatsiya qilish (ko'mish) tarmoqlariga ulanish xizmatlari)ni ko'rsatuvchi, shuningdek, davlat tomonidan tartibga solinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) narxlari (tariflar) bo'yicha yetkazib beruvchi hisoblangan kontragentlar;

- O'zbekiston Respublikasining tabiiy monopoliyalari hisoblangan kontragentlar.

2 Asosiy tushunchalar

Ushbu Yo'riqnomada quyidagi asosiy tushunchalar qo'llanilgan:

2.1 **elektron taklif** — eng yaxshi takliflarni tanlash va tenderda qatnashish uchun xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi o'z shaxsiy kabineti orqali elektron ko'rinishda yuboradigan taklif;

2.2 **ijrochi** – Xarid jarayoni kontragentlarini tekshirish uchun mas'ul bo'lgan Xarid komissiyasi ijro organi vakillari va (yoki) Hamkor kontragentlarni tekshirish uchun mas'ul bo'lgan Kompaniyaning ushbu yo'nalishdagi tarkibiy bo'linmalari vakillari;

2.3 **kontragent** – Kompaniya tomonidan amalga oshiriladigan xarid jarayonining xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilari, shu jumladan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzishda, Kompaniya bilan hamkorlik munosabatlarga kirishayotgan yuridik va jismoniy shaxslar (dilerlar, agentlar va h.) va boshqacha tarzda munosabatlarga kirishayotgan shaxslar (Kompaniya xizmatlarini xarid qilayotgan shaxslar va Kompaniya bilan mehnat munosabatlarga kirishayotgan jismoniy shaxslar bundan mustasno);

2.4 **kontragent/kontragentning benefitsiar egasi (yakuniy benefitsiar)** - pirovardida mulk huquqlariga egalik qiladigan yoki tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchini amalda nazorat qiladigan jismoniy shaxs;

2.5 **korrupsiyaviy harakatlar** – xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali pora beruvchi manfaatlari yo'lida harakat yoki harakatsizlik uchun moddiy manfaatdor bo'lishi, shu jumladan pul mablag'lari, qimmatbaho qog'oz, boshqa ko'rinishdagi mulk va mulkiy huquqlar, mulkiy xarakterdagi xizmatlar olish, talab qilish, undirish, taklif qilish yoki berish, pora berish va (yoki) olish yoki bunda vositachilik qilishda, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to'lovlar undirish (pora olish) va boshqa noqonuniy maqsadlarda o'z xizmat mavqeyidan noqonuniy foydalanish, mansab vakolatlarini suiiste'mol qilish;

2.6 **noqonuniy foyda** – va'da qilinadigan, taklif etiladigan, taqdim etiladigan yoki qonuniy asossiz olinadigan pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk, yoki mulkiy huquqlar, afzalliklar, imtiyozlar, xizmatlar, nomoddiy aktivlar, boshqa har qanday moddiy yoki nomoddiy foyda;

2.7 **manfaatlar to'qnashuvi** – shaxsning shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi uning o'z lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari, qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan (mavjud manfaatlar to'qnashuvi) yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan (ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi) vaziyat;

2.8 **maxfiy axborot** – olinishi, ishlanishi, uzatilishi yoki foydalanishi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi yoki axborot egasining ichki hujjatlariga muvofiq cheklanadigan har qanday shakldagi axborot (davlat sirlari, "XFU" va "XDFU" yozishmalar, tijorat sirlari va boshqalar);

2.9 **maxsus bo'linma** — Kompaniyaning korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmasi;

2.10 **tashabbuskor** – Kompaniya ijroiya apparati yoki filiallarning tarkibiy bo'linmasi;

2.11 **xodimning shaxsiy manfaatdorligi** – Kompaniya xodimi yoxud u bilan aloqador shaxslar ushbu xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita qaror qabul qilinishi yoki xodimning ushbu jarayonda boshqacha tarzda ishtirok etishi natijasida olishi mumkin bo'lgan har qanday naf yoki afzallik;

2.12 **yaqin qarindoshlar** – ota-onalar, aka-ukalar, opa-singillar, o'g'illar, qizlar, er-xotinlar, shuningdek er-xotinlarning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari.

3 Tekshiruvni boshlash tartibi, tekshiruv uchun talab qilib olinadigan hujjatlar va axborot manbalari

3.1 Xarid jarayoni kontragentlarini tekshirish Kompaniyaning Xarid komissiyasi Ishchi organi tomonidan elektron taklifda ishtirok etish uchun takliflarni taqdim etish muddati tugagandan so'ng, biroq xarid qilish tartib-taomillari yakunlari bo'yicha g'olib bo'lgan taklifning aksepti to'g'risida qaror qabul qilingunga qadar amalga oshiriladi.

3.2 Xarid jarayoni doirasida qonunchilik va Kompaniyaning ichki hujjatlari tomonidan o'rnatilgan muddatlarga rioya qilinishi ustidan tekshiruvni amalga oshirish uchun mas'ul ijrochi yoki shartnoma tashabbuskori hisoblanadi (agar xarid to'g'ridan-to'g'ri shartnoma bo'yicha amalga oshirilayotgan bo'lsa).

3.3 Hamkor kontragentlarni tekshirish ishlari ular bilan shartnoma tuzilgunga qadar amalga oshiriladi.

3.4 Kontragentlar tekshiruvi ijrochi tomonidan ushbu Yo'riqnomaning 3.6-bandida ko'rsatilgan hujjatlar olingan sanadan ikki ish kundan ortiq bo'lmagan

muddatda amalga oshiriladi. Kontragentlar tekshirilganligi haqida hisobotlar ijrochi tomonidan maxsus bo‘linmaga taqdim etiladi. Maxsus bo‘linma tomonidan hisobotning tegishli bndlari o‘rganilishi ijrochidan hisobot qabul qilingan sanadan uch ish kundan ortiq bo‘lmagan muddatda amalga oshiriladi.

3.5 Kontragentlarni tekshirish maqsadida hujjatlarni to‘plash va taqdim etish ishlari ijrochi tomonidan amalga oshiriladi.

3.6 Kontragentni tekshirish uchun ijrochi quyidagi hujjatlarni o‘rganib chiqadi:

kontragentdan olingan hujjatlar nusxasi (1-ilovada keltirilgan);

kontragentning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki hujjatlari (agar mavjud bo‘lsa) nusxasi (siyosatlar, nizomlar, hulq-ahloq qoidalari, korrupsiyaga qarshi dasturlar va boshqalar).

3.7 Ushbu Yo‘riqnomaning 3.6-bandida ko‘rsatilgan hujjatlarni olish O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq majburiy hisoblanadi (korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha kontragentning ichki hujjatlari bundan mustasno).

3.8 Kontragentdan olingan barcha hujjatlar kontragentning vakolatli vakili tomonidan tegishli tarzda tasdiqlangan bo‘lishi lozim. Taqdim etiladigan hujjatlar amalda bo‘lishi, davlat reyestrlari hujjatlari esa, tekshiruv sanasiga qadar 30 (o‘ttiz) kundan ortiq bo‘lmagan muddatda olingan bo‘lishi kerak.

3.9 Kontragentni tekshirish uchun ma‘lumotlar to‘plash ijrochi tomonidan Kontragent, uning egalari va rahbarlari, faoliyati to‘g‘risida yaxlit va xolis fikrga ega bo‘lish, shuningdek, undan olingan hujjat va ma‘lumotlarning ishonchliligi, shu jumladan, ularning ishonchsizligi bo‘yicha belgilar yo‘qligini (soxtalashtirish alomatlar mavjud emasligini) baholash uchun amalga oshiriladi.

Kontragentlarni tekshirish doirasida ijrochi quyidagilarni tahlil qiladi:

- kontragent tomonidan taqdim etilgan axborot va hujjatlar - ushbu Yo‘riqnomaning 1-ilovasida ko‘rsatilgan hujjatlarni kontragentdan olish imkoniyati bo‘lmaganda yoki olingan hujjat yoki axborotlarning ishonchli emasligi (soxtalashtirilganligi) belgilari mavjud bo‘lgan hollarda ijrochi kontragent tekshirilganligi haqidagi hisobotda tegishli belgini qo‘yadi;

- ochiq manbalardan olingan ma‘lumotlar - ijrochi 2-ilovada ko‘rsatilgan axborot manbalaridan foydalanishi mumkin. Ushbu ro‘yxat tavsiyaviy bo‘lib, zarurat tug‘ilganda, ijrochi boshqa manbalardan foydalanishi mumkin;

- tegishli kompaniyalarga rasmiy so‘rovnoma yuborish yo‘li bilan olingan hujjatlar;

- Kompaniyaning ichki resurslari, shu jumladan, kontragentlar tekshiruvlari reyestri, manfaatlar to‘qnashuvi holatlarini hisobga olish reyestri va boshqalar.

3.10 Kontragentni tekshirish uchun ishlatilgan manbalar qonuniylik va xolislik talablariga javob berishi kerak.

4 Kontragentlarni tekshirish metodologiyasi

4.1 Kontragentlarni tekshirish quyidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshiriladi:

4.1.1 kontragentning huquqiy layoqatini, moliyaviy barqarorligi, ishonchliligi va u bilan bo'lgan o'zaro munosabatlar tarixini tekshirish, shu jumladan:

a) shartnomani bajarish uchun zarur texnik, moliyaviy, moddiy, xodimlar va boshqa resurslari mavjudligi;

b) shartnoma tuzish uchun qonuniy huquqqa egaligi;

v) soliqlar va yig'implarni to'lash bo'yicha muddati o'tgan qarzдорlikning mavjud emasligi;

g) kontragentlarga nisbatan joriy etilgan bankrotlik tartib-taomillarining mavjud emasligi;

d) Insofsiz ijrochilarning yagona reyestrda qayd etilmaganligi;

4.1.2 kontragentning ish sohasidagi obro'-e'tiborga egaligini;

4.1.3 manfaatlar to'qnashuvi mavjud emasligini tekshirish.

4.2 Xarid jarayoni kontragentlarini ko'rsatilgan yo'nalishlar bo'yicha tekshirish majburiy hisoblanadi. Tekshiruv yo'nalishlari ro'yxati har biri alohida holatda ijrochining Xarid komissiyasi qarori bilan kelishilgan talabi bilan kengaytirilishi mumkin. Bunda, tekshirish yo'nalishi davlat xaridlarini tartibga soluvchi qonunchilikka zid bo'lishi va (yoki) raqobat tamoyillarini cheklashga olib kelishiga yo'l qo'yilmasligi lozim. Bunda, Xarid jarayoni kontragentlari tekshirilganligi haqida hisobot 3-ildovada belgilangan tartibda tayyorlanadi. Mazkur hisobotning 16-20-bandlari maxsus bo'linma tomonidan o'rganiladi va to'ldiriladi.

4.3 Hamkor kontragentlar tekshirilganligi haqida hisobot ikkiga qismga bo'linadi. Birinchi qismida dilerlik tarmog'i kontragentlar tekshirilganligi haqida hisobot bo'lib, u 4-ildovada belgilangan tartibda tayyorlanadi. Mazkur hisobotning 10-14-bandlari maxsus bo'linma tomonidan o'rganiladi va to'ldiriladi. Ikkinchi qismi hamkor kontragentlar (dilerlik tarmog'i kontragentlar mustasno) tekshirilganligi haqida hisobot bo'lib, u 5-ildovada belgilangan tartibda tayyorlanadi. Mazkur hisobotning 11-15-bandlari maxsus bo'linma tomonidan o'rganiladi va to'ldiriladi.

4.4 Ijrochi foydalanish mumkin bo'lgan axborot manbalarining tahlilini amalga oshiradi va 4.6-4.8-bandlarda ko'rsatilgan har bir yo'nalishga nisbatan kontragentning tekshirilganligi haqida hisobotda ko'rsatilgan ma'lumotlarning mavjudligi-mavjud emasligini belgilaydi.

4.5 Ushbu Yo'riqnoma amalga kiritilgunga qadar shartnomaviy munosabatlarda bo'lgan Kompaniyaning amaldagi kontragentni tekshirishda ijrochi bundan avvalgi shartnomaviy munosabatlarning davomiyligi, ushbu kontragent bilan o'zaro harakat tajribasi va uning Kompaniya bilan avval tuzilgan shartnomalar bo'yicha majburiyatlari vijdonan bajarilganligini tekshiradi.

Yangi kontragentni tekshirishda ijrochi kontragent tomonidan shu kabi shartnomalarning bajarilganligi to'g'risidagi axborot va boshqa buyurtmachilar (mijozlar) bergan tavsiyanomalarni tahlil qiladi hamda imkon darajasida ushbu kontragentning boshqa mijozlari oldidagi shartnomaviy majburiyatlari vijdonan bajarilganligini tekshiradi.

4.6 Kontragentning huquqiy layoqatini, moliyaviy barqarorligi, ishonchliligi va u bilan bo'lgan munosabatlar tarixini tekshirish doirasida ijrochi quyidagi ma'lumotlarni aniqlaydi:

kontragentning Tadbirkorlik subyektlarining Yagona reyestriga kiritilganligi;

kontragentning yuridik va amaldagi manzili;

kontragent rahbari va ta'sischilarining F.I.Sh.;

kontragent faoliyatining asosiy yo'nalishlari xarid predmetiga muvofiqligi, bunda, maxsus tajriba va litsenziya (ruxsatnoma)lar talab etiladigan xarid predmetlariga tatbiq etiladi;

kontragent faoliyatini tugatish, qayta tashkil etish, o'ziga nisbatan joriy etilgan bankrotlik tartib-taomillarining mavjud emasligi;

kontragentda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq ravishda litsenziyalanishi kerak bo'lgan faoliyat turlarini amalga oshirish uchun zarur litsenziyalar (ruxsatnomalar)ning mavjudligi (agar xarid jarayonida xarid predmeti uchun litsenziyalar (ruxsatnomalar) talab qilinsa);

kontragentda ochiq axborot, taqdim etilgan hujjatlar va buxgalteriya hisobdorligiga muvofiq asosiy mablag'lar, xususiy kapital, xodimlar va boshqa texnik, moliyaviy, moddiy va Kompaniya oldidagi majburiyatlarni bajarish uchun zarur bo'lgan boshqa resurslarning mavjudligi;

kontragent nomidan Kompaniya bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishayotgan shaxsda tegishli vakolatning mavjudligi;

kontragent maxsus axborot portalida Insofsiz ijrochilarning yagona reyestriga kiritilmaganligi;

kontragent Davlat soliq qo'mitasining saytidagi to'lanishi lozim bo'lgan QQS summalarini kamaytirish tarzidagi huquqni suiiste'mol qilgan korxonalar ro'yxatiga kiritilmaganligi;

kontragentning so'nggi ikki yil ichida Kompaniya oldidagi shartnomaviy majburiyatlarini o'z vaqtida bajarmaganligi yoki ularning lozim darajada bajarmaganligi to'g'risida ma'lumotlar mavjud emasligi;

kontragentda soliqlar va yig'imlarni to'lash bo'yicha muddati o'tgan qarzдорlikning mavjud emasligi.

4.7 Kontragentning ish sohasidagi obro'-e'tiborini tekshirish doirasida ijrochi quyidagi ma'lumotlarni aniqlaydi:

ochiq axborot manbalarida kontragent, uning mulkiy egalari, shu jumladan benefitsiar mulkiy egalari yoki rahbarlarning firibgarlik, soxtalashtirish va korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlar yoki boshqa noqonuniy faoliyatda ishtirok etganligi to'g'risidagi axborot mavjud emasligi;

kontragent rahbariga nisbatan huquqni muhofaza qiluvchi yoki boshqa davlat organlarida qoralovchi ma'lumot yoki materiallarning mavjud emasligi;

kontragentning ishbilarmonlik ahloqiy me'yorlari va korrupsiyaga qarshi kurash masalalarini tartibga soluvchi tartib-taomillari va siyosatlarining mavjudligi (agar mavjud bo'lsa);

kontragentning mulk egalari yoki rahbarlariga (boshqaruv organlari a'zolariga) nisbatan uning moliyaviy-xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan jinoyat ishlari mavjud emasligi;

kontragent, uning mulk egalari yoki boshqa rahbarlari to'g'risida boshqa salbiy ma'lumotlar mavjud emasligi.

4.8 "Davlat xaridlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 14-moddasiga muvofiq, Davlat buyurtmachisining, davlat xaridlari elektron tizimi operatorining, ixtisoslashgan tashkilotning, ekspert tashkilotning mansabdor shaxslari va boshqa xodimlari, shuningdek, xarid komissiyasining a'zolari hamda ekspertlar xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirishda o'z ishtirokidagi davlat xaridlariga doir bitimning natijasi bo'lgan har qanday shaxsiy foydani bevosita yoki bilvosita olish huquqiga ega emas.

Shunga muvofiq, ijrochi maxsus bo'linma bilan birgalikda ushbu Yo'riqnomaning 3, 4 va 5-ilovalariga muvofiq shaklda to'ldirilgan kontragentning yakuniy benefitsiarlari to'g'risidagi ma'lumotnomada aks ettirilgan ma'lumotlarning Tadibirkorlik subyektlari Yagona davlat reyestri ma'lumotlariga muvofiqligini tekshiradi. Ushbu tekshiruv kontragentning rahbarlari va ta'sischilariga nisbatan ham amalga oshiriladi. Shuningdek, ijrochi manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi yoki yo'qligini quyidagi mezonlar bo'yicha tekshiradi:

kontragentning yagona yoki mulkiy egalaridan biri, shu jumladan, benefitsiar mulkiy egasi – ushbu Xarid jarayonining boshqa ishtirokchisi rahbari yoki uning yaqin qarindoshi emasligi;

kontragentni tanlashda ishtirok etuvchi tashabbuskor yoki Kompaniyaning boshqa xodimlari yoki ularning yaqin qarindoshlari tijorat tashkilotlarining ta'sischisi (aksiyadori, ishtirokchisi) ekanligi (aksiyadorlik jamiyatlarining erkin muomalada bo'lgan aksiyalarining o'n foizigacha egalik qilish hollari bundan mustasno);

kontragentni tanlashda ishtirok etuvchi tashabbuskor yoki Kompaniyaning boshqa xodimlari yoki ularning yaqin qarindoshlari kontragent boshqaruv kengashi tarkibiga kirmasligi yoki uning faoliyati natijalaridan shaxsiy manfaatdorlikka (shu jumladan ularning investitsiyalarini amalga oshirishda) ega bo'lmasligi;

kontragentni tanlashda ishtirok etuvchi tashabbuskor yoki Kompaniyaning boshqa xodimlari yoki ularning yaqin qarindoshlari kontragentda rahbarlik lavozimi yoki qarorlar qabul qilish bilan bog'liq lavozimlarda ishlamasligi;

kontragent va Xarid komissiyasi a'zolari o'rtasida affillanganlik aloqalari mavjud emasligi;

manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan boshqa sharoitlar.

Manfaatlar to'qnashuvi mavjudligini tekshirishni maxsus bo'linma kontragentlar tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarni Kompaniya xodimlari tomonidan taqdim etilgan Ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyalarda aks ettirilgan va tegishli reyestrga kiritilgan ma'lumotlar bilan taqqoslash orqali amalga oshiradi.

5 Tekshiruv natijalarini rasmiylashtirish va hujjatlashtirish

5.1 O'tkazilgan tekshiruv natijalari bo'yicha ijrochi ushbu Yo'riqnomaning 3, 4 va 5-ilovasida belgilangan shaklda hisobot tuzadi. Kontragent tekshirilganligi haqidagi hisobotga ijrochi tomonidan o'tkazilgan tahlil va tahlilni tasdiqlovchi boshqa hujjatlarni ilova qiladi.

5.2 Ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi yoki mavjud manfaatlar to'qnashuvi aniqlangan taqdirda, maxsus bo'linma uni tartibga solish zaruriyati to'g'risida choralarni ko'rish bo'yicha taklif kiritadi. Manfaatlar to'qnashuvi mavjud yoki mavjud emasligi bo'yicha o'tkazilgan tahlil yakunlari va uni tartibga solish bo'yicha choralar ham kontragent tekshirilganligi haqidagi hisobotida aks ettiriladi.

5.3 Xatar indikatorlari aniqlanganda, ijrochi kontragent tekshirilganligi haqidagi hisobotda aniqlangan xatarlarni kamaytirishga yo'naltirilgan kontragent bilan ishlash bo'yicha tavsiyalarni taklif qiladi va aks ettiradi (masalan, shartnomaga avans to'lovlarga taqiqni kiritish va boshqalar).

5.4 Ijrochi kontragent tekshirilganligi haqidagi hisobotni maxsus bo'linmaga taqdim etadi. Maxsus bo'linma hisobotning tegishli bandlarini o'rganish natijalariga ko'ra, hisobotni to'ldiradi va tahlil qiladi. Shundan so'ng, ushbu hisobotni yakuniy tartibda rasmiylashtiradi va kontragent bilan shartnoma rasmiylashtirish to'g'risidagi qaror qabul qilish jarayonida inobatga oladi.

5.5 Kontragent va Kompaniya xodimi o'rtasida mavjud manfaatlar to'qnashuvi aniqlangan taqdirda, u Xarid jarayonini yoki hamkorlikni davom ettirishdan oldin Kompaniyada manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha ichki hujjatga asosan tartibga solinishi kerak. Manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish imkoniyati bo'lmagan taqdirda, kontragent xarid jarayonida ishtirok etishdan chetlatilishi yoki u bilan hamkorlikni tugatish lozim.

5.6 Agar to'g'ridan-to'g'ri xaridlar doirasida kontragentni tekshirish natijalariga ko'ra, korrupsiyaviy xavf-xatarlarning mavjudligi aniqlansa, u holda kontragent bilan shartnoma tuzish ehtimoli haqidagi qaror Xarid komissiyasi tomonidan qabul qilinadi.

5.7 Kontragent tekshirilganligi haqidagi hisobot maxsus bo'linma tomonidan umumlashtirib boriladi.

5.8 Ijrochi kontragent tekshirilganligi haqidagi hisobotni maxsus bo'linmaga taqdim etganidan so'ng, maxsus bo'linma ushbu haqda tegishli ma'lumotlarni mazkur Yo'riqnomaning 6-ilovasiga muvofiq shaklda Kontragentlarni tekshirish reyestriga kiritadi.

5.9 Kontragentlarni tekshirish reyestri va kontragentlarni tekshirish natijalari, shuningdek, kontragent tekshirilganligi haqida hisobot, kontragentlar tomonidan taqdim etilgan hujjatlar hamda ijrochi tomonidan tegishli manbalardan olingan ma'lumotlar kontragent bilan shartnoma munosabatlari to'xtatilgan kundan boshlab, kamida 3 (uch) yil maxsus bo'linmada saqlanadi.

5.10 Kontragentlarni tekshirish reyestri va kontragentlarni tekshirish natijalari, shuningdek, kontragent tekshirilganligi haqida hisobot, kontragentlar tomonidan taqdim

etilgan hujjatlar hamda ijrochi tomonidan tegishli manbalardan olingan ma'lumotlar konfidensial bo'lib, Kompaniya xodimlariga va xizmat vazifalari va vakolatlari bunday ma'lumotlardan foydalanishni o'z ichiga olmagan boshqa uchinchi shaxslarga oshkor qilinmaydi. Lavozim majburiyatlarini amalga oshirish uchun bunday ma'lumotlardan foydalanishi zarur bo'lgan boshqa xodimlar Kompaniya boshqaruvi raisining yozma roziligini olishi lozim.

5.11 Agar kontragentni tekshirish davomida ijrochi va (yoki) maxsus bo'linma tomonidan korrupsiyaviy harakatlar amalga oshirishda va manfaatlar to'qnashuvini yashirishga oid holatlar sodir etilganlikda gumon qilinilsa, u holda tegishli ma'lumotlar maxsus bo'linma tomonidan Kompaniya rahbariyatiga taqdim etiladi. Kompaniya rahbariyati tegishli ma'lumotlarni o'rnatilgan tartibda O'zbekiston Respublikasi huquqni muhofaza qilish organlariga yuboradi.

6 Yakuniy qoidalar

6.1 Kontragentlarni tekshirish jarayoni doimiy ravishda maxsus bo'linma tomonidan monitoring qilib boriladi.

6.2 O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi yoki Kompaniyaning ichki normativ hujjatlarining ushbu Yo'riqnomaga ta'sir qiladigan normalari o'zgarganda, ushbu Yo'riqnoma qayta ko'rib chiqilishi yoki unga tegishli o'zgartirish kiritilishi lozim.

Kontragentdan tekshirish uchun so‘raladigan hujjatlar

T/r	Hujjat nomi	Yuridik shaxs (YuSh) / Yakka tartibdagi tadbirkor (YaTT)	Yangi kontragent	Joriy kontragent
1	Davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnomaning nusxasi	YuSh / YaTT	Majburiy	Majburiy emas
2	Qo‘shimcha qiymat solig‘i to‘lovchi ekanligi to‘g‘risida guvohnoma	YuSh / YaTT	Majburiy (QQS to‘lovchisi bo‘lsa/QQS to‘lovchisi bo‘lmaganda ushbu haqda hujjat taqdim etilishi mumkin)	O‘zgarish bo‘lganda so‘rab olish
3	Ustav va boshqa ta‘sis hujjatlarining nusxasi	YuSh	1. Xarid jarayoni kontragentlari uchun tanlov/tender hujjatlari asosida. 2. Hamkor kontragentlar uchun majburiy.	O‘zgarish bo‘lganda so‘rab olish
4	Imzo chekuvchi shaxs shartnoma tuzishga haqliligi to‘g‘risida hujjat	YuSh / YaTT	Majburiy (tashkilot nomidan ishonchnomasiz ish yuritish vakolatiga ega shaxs tasdiqlanganligi to‘g‘risida buyruq yoki asoslovchi hujjat/boshqa imzo chekuvchi shaxslar uchun ishonchnoma)	Xarid jarayoni kontragentlari uchun majburiy
5	Kontragent egaligi tuzilmasi, bunga, benefitsar mulkiy egalarini ham hisobga olgan holda barcha mulk egalari kiritiladi	YuSh	Majburiy	Xarid jarayoni kontragentlari uchun majburiy
6	Xo‘jalik jamiyatining to‘lovga qobiliyatsizligi (bankrotligi) to‘g‘risida ma‘lumot olish	YuSh / YaTT	Majburiy	Xarid jarayoni kontragentlari uchun majburiy
7	Ko‘rsatilgan ishlar/xizmatlarni bajarish uchun malakali kadrlarning mavjudligi to‘g‘risida ma‘lumot (xat va/yoki tasdiqlovchi hujjatlar shaklida taqdim etilishi mumkin)	YuSh	1. Xarid jarayoni kontragentlari uchun majburiy. 2. Hamkor kontragentlar uchun birinchi marta shartnoma tuzishda shartnoma tuzilishi rejalashtirilgan yo‘nalish va/yoki predmentiga qarab talab qilinishi mumkin	Xarid jarayoni kontragentlari uchun majburiy (bunda shartnoma tuzilishi rejalashtirilgan yo‘nalish va/yoki predmentiga qarab)
8	Muvofiqlik litsenziyalari, ruxsatnomalar va sertifikatlari	YuSh / YaTT	Tovarlar/ishlar/xizmatlar turiga qarab, majburiy	Tovarlar/ishlar/xizmatlar turiga qarab, majburiy

Kontragentlarni tekshirish uchun ochiq axborot manbalari

1. Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tekshirish Davlat xizmatlari agentligi platformasi - https://fo.birdarcha.uz/s/ru_landing
2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi - <http://registr.stat.uz/>
3. Soliq organlarining elektron davlat xizmatlari portali - <https://my2.soliq.uz/main/info/debtors?lang=uz>
4. O‘zbekiston Respublikasi ochiq ma’lumotlar portali - <https://data.gov.uz/ru>
5. Toshkent shahar yer resurslari va Davlat kadastr boshqarmasi - <http://kadastr.uz/ru/>
6. Insofsiz ijrochilarning yagona reyestri - <http://xarid.uz/unfairexecutor>
7. Iqtisodiy, ma’muriy, jinoiy va fuqarolik sudlarining sud hujjatlari - <https://public.sud.uz/#!/sign/view>
8. Ofshor zonalar ro‘yxati - <http://www.fatf-gafi.org/publications/high-risk-and-other-monitored-jurisdictions/documents/call-for-action-february-2021.html>
9. AQShda maxsus toifadagi va taqiqlangan shaxslar ro‘yxati (yoki “WorldCheck” ma’lumotlar bazasi) - <https://sanctionssearch.ofac.treas.gov/>

Ushbu ro‘yxat ijrochi tomonidan tekshirish uchun tavsiya etilgan manbalar ro‘yxati bo‘lib, zarur bo‘lganda kengaytirilishi mumkin.

Xarid jarayoni kontragentlarining tekshirilganligi haqida hisobot

Shartnoma predmeti		Lot raqami va xarid jarayonining nomi
1	Kontragentning nomi	<i>Kontragentning nomi ko‘rsatiladi (Davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnomaning nusxasi taqdim etiladi)</i>
2	STIR	
3	QQS raqami	<i>(QQS to‘lovchisi ekanligi to‘g‘risida guvohnoma yoki QQS to‘lovchisi bo‘lmaganda ushbu haqda hujjat taqdim etiladi)</i>
4	Yuridik va amaldagi manzili	
5	Rahbarning F.I.Sh.	
6	Ta‘sischilarning F.I.Sh.	
7	Yakuniy benefitsiarlarning F.I.Sh.	<i>(Pirovardida mulk huquqlariga egalik qiladigan yoki tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchini amalda nazorat qiladigan jismoniy shaxs)</i>
8	Kontragent nomidan imzo chekuvchi shaxs shartnoma tuzishga haqliligi to‘g‘risida hujjat	<i>(tashkilot nomidan ishonchnomasiz ish yuritish vakolatiga ega shaxs tasdiqlanganligi to‘g‘risida buyruq yoki asoslovchi hujjat/boshqa imzo chekuvchi shaxslar uchun ishonchnoma)</i>
9	Kontragent faoliyatining asosiy yo‘nalishlari	
10	Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashda qarzdorliklarning yo‘qligi	
11	Kontragentga nisbatan joriy etilgan qayta tashkil etish, tugatish (likvidatsiya), bankrotlik tartib-taomillarining yo‘qligi	
12	Insofsiz ijrochilarning yagona reyestrda kontragent haqida yozuvning mavjud emasligi	
13	Kompaniya tizimida kontragent bilan ishlashning avvalgi salbiy tajribasi yo‘qligi	<i>Mavjud bo‘lganda, sabablari ko‘rsatib o‘tiladi</i>
14	Kontragent xaridning boshqa konteragenlari bilan affillanganligi	
15	Kontragentning sayti	<i>Mavjud bo‘lgan taqdirda</i>
16	Manfaatlar to‘qnashuvi / Kontragentning Kompaniya tizimi xodimlari bilan affillanganligi haqida ma‘lumot	
17	Aniqlangan manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish chora-tadbirlari	
18	Korrupsiyaga oid qoidabuzarliklar ehtimoli haqida ma‘lumotlar	

19	Ish sohasidagi obro'sining salbiy omillari ehtimoli haqida ma'lumotlar	
20	Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha hujjatlarning mavjudligi (veb-saytda taqdim etilgan yoki mavjud)	<i>Mavjud bo'lgan taqdirda</i>
21	Kontragentning moliyaviy, moddiy, texnik, kadrlar va boshqa resurslari miqdori shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish uchun yetarililigi	
22	Kontragent tekshirish uchun barcha zarur hujjatlarni taqdim etganligi	<i>Ha/Yo'q. Taqdim etilmagan hujjatlar ko'rsatib o'tiladi</i>
23	Hisobotga ilova qilingan boshqa materiallar	
	a)	<i>(mavjud bo'lganda)</i>
	b)	<i>(mavjud bo'lganda)</i>
	v)	<i>(mavjud bo'lganda)</i>
	g)	<i>(mavjud bo'lganda)</i>
	Tekshirish natijalari asosida asosiy xulosalar va kuzatishlar	
Kontragentni tekshirishni amalga oshirgan Xarid komissiyasi ijro organi xodimi haqida ma'lumotlar		
	F.I.Sh.	
	Lavozimi	
	Hisobot tuzilgan sana	
	Imzo	
Kontragentni tekshirishni amalga oshirgan maxsus bo'linma xodimi haqida ma'lumotlar		
	F.I.Sh.	
	Lavozimi	
	Hisobot tuzilgan sana	
	Imzo	

* xarid jarayoni kontragentlarini tekshirish uchun qo'shimcha hujjatlar talab qilinishi mumkin

1. Dilerlik tarmog‘i kontragentlar tekshirilganligi haqida hisobot

Shartnoma predmeti		Bunda, shartnoma tuzilishi rejalashtirilgan yo‘nalish va/yoki predmenti ko‘rsatib o‘tiladi
1	Kontragentning nomi	Kontragentning nomi ko‘rsatiladi (Davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnomaning nusxasi taqdim etiladi)
2	STIR	
3	QQS raqami	(QQS to‘lovchi ekanligi to‘g‘risida guvohnoma yoki QQS to‘lovchisi bo‘lmaganda, ushbu haqda hujjat taqdim etiladi)
4	Yuridik va amaldagi manzili	
5	Rahbarning F.I.Sh.	
6	Ta‘sischilarning F.I.Sh.	
7	Yakuniy benefitsiarlarning F.I.Sh.	(Pirovardida mulk huquqlariga egalik qiladigan yoki kontragentni amalda nazorat qiladigan jismoniy shaxs)
8	Kontragent nomidan imzo chekuvchi shaxs shartnoma tuzishga haqliligi to‘g‘risida hujjat	(tashkilot nomidan ishonchnomasiz ish yuritish vakolatiga ega shaxs tasdiqlanganligi to‘g‘risida buyruq yoki asoslovchi hujjat/boshqa imzo chekuvchi shaxslar uchun ishonchnoma)
9	Kompaniya tizimida kontragent bilan ishlashning avvalgi salbiy tajribasi yo‘qligi	Dilerlik (agentlik) shartnomasida keltirilgan quyidagi jarimalar qo‘llanilgan bo‘lsa: 1. Abonent ishtirokisiz telekommunikatsiya xizmatlarini ulash, abonent raqamini ulash, SIM-kartani yoki abonent raqamini almashtirish bo‘yicha operatsiyalarini bajarish, texnologiyani o‘zgartirish yoki internet xizmatlarini ko‘rsatish, shartnomasini yangilash bo‘yicha operatsiyalarini bajarganlik uchun. 2. Operator nomidan RUIM va SIM-kartalarni Operator tomonidan tavsiya etilganidan past yoki yuqori narxlarda sotish fakti aniqlanganda. 3. Agar Agent tomonidan GSM shlyuzda ushbu raqamlaridan keyinchalik foydalanish maqsadida, abonentning ishtirokida yoki qatnashuvida abonent raqamlarini ataylab ulaganligi holati aniqlanganda. 4. Agar Agent tomonidan GSM shlyuzda ushbu raqamlardan keyinchalik foydalanish maqsadida abonentning ishtirokida yoki qatnashuvida abonent raqamlarini ataylab ulaganligi holati takroran aniqlanganda. Shuningdek qonunchilikda belgilangan talablar buzilganligi to‘g‘risida ma‘lumotlar mavjud bo‘lsa
10	Manfaatlar to‘qnashuvi / Kontragentning Kompaniya tizimi xodimlari bilan affillanganligi haqida ma‘lumot	
11	Aniqlangan manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish chora-tadbirlari	

12	Korrupsiyaga oid qoidabuzarliklar ehtimoli haqida ma'lumotlar	
13	Ish sohasidagi obro'sining salbiy omillari ehtimoli haqida ma'lumotlar	
14	Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha hujjatlarning mavjudligi (veb-saytda taqdim etilgan yoki mavjud)	<i>Mavjud bo'lgan taqdirda</i>
15	Hisobotga ilova qilingan boshqa materiallar	
	a)	(mavjud bo'lganda)
	b)	(mavjud bo'lganda)
	v)	(mavjud bo'lganda)
	g)	(mavjud bo'lganda)
	Tekshirish natijalari asosida asosiy xulosalar va kuzatishlar	
Kontragentni tekshirishni amalga oshirgan mas'ul xodim haqida ma'lumotlar		
	F.I.Sh.	
	Lavozimi	
	Hisobot tuzilgan sana	
	Imzo	
Kontragentni tekshirishni amalga oshirgan maxsus bo'linma xodimi haqida ma'lumotlar		
	F.I.Sh.	
	Lavozimi	
	Hisobot tuzilgan sana	
	Imzo	

* diler tarmog'i kontragentlarni tekshirish uchun qo'shimcha hujjatlar talab qilinishi mumkin

Hamkor kontragentlar tekshirilganligi haqida hisobot

Shartnoma predmeti		<i>Bunda shartnoma tuzilishi rejalashtirilgan yo‘nalish va/yoki predmenti ko‘rsatib o‘tiladi</i>
1	Kontragentning nomi	<i>Kontragentning nomi ko‘rsatiladi (Davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnomaning nusxasi taqdim etiladi)</i>
2	STIR	
3	QQS raqami	<i>(QQS to‘lovchi ekanligi to‘g‘risida guvohnoma yoki QQS to‘lovchisi bo‘lmaganda ushbu haqida hujjat taqdim etiladi)</i>
4	Yuridik va amaldagi manzili	
5	Rahbarning F.I.Sh.	
6	Ta‘sischilarning F.I.Sh.	
7	Yakuniy benefitsiarlarning F.I.Sh.	<i>(Pirovardida mulk huquqlariga egalik qiladigan yoki kontragentni amalda nazorat qiladigan jismoniy shaxs)</i>
8	Kontragent nomidan imzo chekuvchi shaxs shartnoma tuzishga haqliligi to‘g‘risida hujjat	<i>(tashkilot nomidan ishonchnomasiz ish yuritish vakolatiga ega shaxs tasdiqlanganligi to‘g‘risida buyruq yoki asoslovchi hujjat/boshqa imzo chekuvchi shaxslar uchun ishonchnoma)</i>
9	Kontragentning sayti	<i>Mavjud bo‘lgan taqdirda</i>
10	Kompaniya tizimida kontragent bilan ishlashning avvalgi salbiy tajribasi yo‘qligi	<i>Mavjud bo‘lganda sabablari ko‘rsatib o‘tiladi</i>
11	Manfaatlar to‘qnashuvi / Kontragentning Kompaniya tizimi xodimlari bilan affillanganligi haqida ma‘lumot	
12	Aniqlangan manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish chora-tadbirlari	
13	Korrupsiyaga oid qoidabuzarliklar ehtimoli haqida ma‘lumotlar	
14	Ish sohasidagi obro‘sining salbiy omillari ehtimoli haqida ma‘lumotlar	
15	Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha hujjatlarning mavjudligi (veb-saytda taqdim etilgan yoki mavjud)	<i>Mavjud bo‘lgan taqdirda</i>
16	Kontragentning moliyaviy, moddiy, texnik, kadrlar va boshqa resurslari miqdori shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni bajarish uchun yetarliligi	<i>Bunda shartnoma tuzilishi rejalashtirilgan yo‘nalish va/yoki predmentiga qarab talab qilinishi mumkin</i>
17	Hisobotga ilova qilingan boshqa materiallar	
	a)	<i>(mavjud bo‘lganda)</i>

	b)	(mavjud bo'lganda)
	v)	(mavjud bo'lganda)
	g)	(mavjud bo'lganda)
	Tekshirish natijalari asosida asosiy xulosalar va kuzatishlar	
Kontragentni tekshirishni amalga oshirgan mas'ul xodim haqida ma'lumotlar		
	F.I.Sh.	
	Lavozimi	
	Hisobot tuzilgan sana	
	Imzo	
Kontragentni tekshirishni amalga oshirgan maxsus bo'linma xodimi haqida ma'lumotlar		
	F.I.Sh.	
	Lavozimi	
	Hisobot tuzilgan sana	
	Imzo	

* hamkor kontragentlarni tekshirish uchun qo'shimcha hujjatlar talab qilinishi mumkin

“O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasida
kontragentlarni tekshirishga oid yo‘riqnomaga
6-ilova

Xarid jarayoni kontragentlarini / Hamkor kontragentlarni tekshirish reyestri

[illegible]